

**TANQIDIY FIKRLASH ASOSIDA AKADEMIK HALOLLIK  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH-INSON KAPITALINI  
YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI**

*Rahimjanova Muqaddas Dilmurod qizi*  
*NamDPI tayanch doktorantura (PhD)1-kurs talabasi*  
[muqaddas.rahimjanova@com](mailto:muqaddas.rahimjanova@com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.21206462>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash asosida akademik halollik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda akademik halollikni mustahkamlash orqali ta’lim sifatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashning shaxs intellektual rivojidadagi o’rni va uning akademik muhitdagi ahamiyati asoslab beriladi. Akademik halollik tamoyillarini mustahkamlash orqali ta’lim sifatini oshirish, plagiatning oldini olish va halollik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari talabalarda halollik kompetensiyalarini rivojlantirishda tanqidiy fikrlash metodikasining samaradorligini ko’rsatadi.

**Kalit so’zlar:** tanqidiy fikrlash, akademik halollik, kompetensiya, inson kapitali, ta’lim sifati

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования компетенций академической честности на основе критического мышления. Анализируются возможности повышения качества образования и развития человеческого капитала через укрепление академической честности. Также обосновывается роль критического мышления в интеллектуальном развитии личности и его значение в академической среде.

**Ключевые слова:** критическое мышление, академическая честность, компетенция, человеческий капитал, качество образования

**Abstract :** This thesis explores the methodology of improving students’ competencies in academic integrity through critical thinking. Critical thinking is considered as a key factor in enabling students to make independent decisions, draw evidence-based conclusions, and adhere to academic honesty. The study analyzes the opportunities of strengthening academic integrity principles to enhance the quality of education, prevent plagiarism, and foster a culture of honesty. The findings demonstrate that the methodology of critical thinking is effective in developing students’ competencies related to academic integrity.

**Keywords:** critical thinking, academic integrity, competence, methodology, quality of education.

**KIRISH.** Zamonaviy ta’lim sharoitida akademik halollik tamoyillarini mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir. Raqamli ta’lim muhitining tobora rivojlanishi talabalarning mustaqil fikrlashi, dalillarga asoslangan qaror qabul qilishi va ilmiy halollikka rioya etishi jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi. Shu bois dunyo bo’ylab raqamli ta’lim muhitida plagiat, yolg’on, mustaqil qaror qabul qilmaslik, adolatsiz baholash ham bir birini taqazo etgandek rivojlanmoqda. Bu masala bugunki kuning global miqiyosda dolzarbligini saqlamoqda. Tadqiqotlarga ko’ra, 2025-yilda chop etilgan maqolalarning 57%

I da sun’iy itelektidan foydalanish holatlari kuzatilgan bo’lib, 2023-yilda bu ko’rsatgich 12 % I qayd etilgan.[7] Bu oradagi yuqori ko’rsatgich ilm-fan makonida yangi davrning kirib kelishini ko’rsatadi. Dunyo raqamlashayotgan bir davrda bunday holat muhimligi bordir, ammo masalaning ikkinchi tarafi ham mavjud. Ya’ni ilmiy tadqiqot ishlarida akademik halollik shuningdek inson kapitalining o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim muassasalarida Al ning har qanday turi va versiyasiga qarab uning vazifalaridan imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda undan qay usul bilan foydalanish etikasini shakllantirishimiz muhimdir. Shaxsiy kopetensiya darajasini oshirish, qobiliyatlarni yo’naltirish akademik halollik ko’rsatgichini oshirish ta’lim sifatini belgilab beruvchi omil sifatida muhimdir. Chet el olimlarining fikricha, tanqidiy fikrlash talabalarning ilmiy halollikka rioya etishda asosiy omil bo’lib xizmat qiladi .Masalan, Promethi Das Deep va Yixin Chen (Sam Houston State University, AQSh) ta’kidlaganidek, tanqidiy fikrlash va akademik halollik o’zaro uzviy bog’liq bo’lib, talabalarda yozma ishlar sifatini oshirish va plagiatni kamaytirishda muhim rol o’ynaydi. [3]

**ASOSIY QISIM.** Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, raqamli ta’lim muhitda tanqidiy fikrlash va akademik hallolik tushunchasini shakllantirish plagiat, ko’chirmakashlik, individual fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmasini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash asosida ta’lim tizimida adolatlik, mas’uliyat, inson kapitalini oshirish, akademik halollik tushunchalarini yuzaga keltirish zamonaviy ta’limning sifat darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Quydagi berilgan tushunchalarni ichki ong ostiga ta’siri darajasiga olib chiqilsa, tashqi ta’sir omillaridan ko’ra samarali natija beradi. Ya’ni ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsiy kompetensiya muhimligini ichki hissiyot orqali anglab yetilsa, akademik halollik, ilmda inson kapitali tushunchalari abstract holatda emas, tashqi nazorat uchun ham emas aksincha insoning halollik va adolat tuyg’ularini mustahkamlashga qaratiladi.Tadqiqotlardan natijasiga ko’ra quydagi atamalarni talabalarda shakllantirish muhim omil bo’lib xizmat qiladi:

- Tanqidiy fikrlash – talabaning ma’lumotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli xulosaga kelish qobiliyatini shakllantiradi. Yusupova va Ergasheva tadqiqotida ko’rsatilishicha, G’arb universitetlarida tanqidiy fikrlash akademik yozuvning ajralmas qismi sifatida qaraladi.[5]

- Akademik halollik – ilmiy faoliyatda halollik, adolat va mas’uliyat tamoyillariga amal qilish. Bu tamoyillar talabalarda mustaqil fikr va dalillarga asoslangan qaror qabul qilishni talab etadi. Bugungi raqamlashgan ta’lim muhitida akademik halollik eng dolzarb masalalardan birdir

- Kompetensiya – bilim, ko’nikma va qadriyatlarning integratsiyasi bo’lib, talabaning amaliy faoliyatida namoyon bo’ladi.

- Inson kapitali- ta’lim inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy mexanizm hisoblanadi. Har bir bilim ko’nikma malaka, shaxshiy kompetensiya uning rivoji uchun xizmat qiladi.

Bu jihatlarni amalda joriy etish jarayonida bir nechata pedagogik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### **Metodik yondashuv**

- Muammoli vaziyatlar yaratish: Talabalarga turli ilmiy va ijtimoiy muammolarni tahlil qilish topshiriqlari beriladi. Bu asosida talabada mustaqil fikrlash, taqqoslash, qaror qabul qilish ko’nikmalari rivojlanadi.



-Debat va munozaralar: Akademik halollik tamoyillarini muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlashni faollashtirish. Vaziyatga mustaqil hamda tanqidiy ruhda qarash orqali halollik kompetensiyasi shakllanadi.

- Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash: Talaba o‘zining ilmiy ishlarini halollik mezonlari asosida tahlil qiladi.

- Integratsiya: Tanqidiy fikrlash mashg‘ulotlari akademik halollik qoidalari bilan bog‘lanadi.

#### **Amaliy natijalar**

- Talabalarda mustaqil fikrlash va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

- Akademik halollikni buzuvchi holatlarga tanqidiy yondashish va ularni bartaraf etish kompetensiyasi rivojlanadi.

- Ta’lim jarayonida halollik madaniyati mustahkamlanadi, ilmiy faoliyatda ishonchlilik ortadi.

Xulosa o‘rnida, Chet el olimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash akademik halollikni rivojlantirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Yusupova va Ergasheva tadqiqotida talabalarining turli madaniy muhitda ham tanqidiy fikrlashni o‘zlashtira olishi isbotlangan. Promethi Das Deep va Yixin Chen esa tanqidiy fikrlashni akademik yozuvda halollikni ta’minlovchi asosiy kompetensiya sifatida baholaydi.[1] Shunday qilib, taklif etilgan metodika talabalarda halollik kompetensiyalarini shakllantirishda amaliy natija berishi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bu borada ilgari surilgan metodika hamda g‘oyalarning dolzarbili shundaki, tanqidiy fikrlash va akademik halollik tashqi nazorat, qoidalar normalar bilan cheklash orqali nazoratni to‘liq emasligi, to‘liq skallantirish uchun ichki qadriyatga ayalnirilgan metodikalarni qo‘llash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Paul, R., & Elder, L. (2014). Critical thinking: Tools for taking charge of your learning and your life (3rd ed.). Pearson Education.

2. Facione, P. A. (2011). Critical thinking: What it is and why it counts. Insight Assessment.

3. Das Deep, P., & Chen, Y. (2021). Critical thinking and academic integrity in higher education. *Journal of Academic Ethics*, 19(3), 245–260.

4. Bretag, T. (2016). Challenges in addressing plagiarism in higher education. *Journal of Higher Education Policy and Management*, 38(5), 593–609.

5. Yusupova, D., & Ergasheva, N. (2022). Critical thinking in academic writing: Comparative study of Uzbek and Western students. *International Journal of Education and Practice*, 10(2), 45–56.

6. Macfarlane, B., Zhang, J., & Pun, A. (2014). Academic integrity: A review of the literature. *Studies in Higher Education*, 39(2), 339–358.

7. Carroll, J. (2007). A handbook for deterring plagiarism in higher education. Oxford Centre for Staff and Learning Development.